

**GIDRONIMLAR USTIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR VA ULARNING
KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING TIL KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI**

Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna

Farg'ona davlat universiteti professori

Usmonova Mashhuraxon Ulug'bek qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada gidronimlarning ahamiyati, ularning yasalish xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Dolzarbligi, bugungi kunda tarixiy nomlarning ma'nosini to'liq anglab yetmaslik natijasida nomlarni turlicha talqin qilish kabi muammolarni bartaraf etish. Bundan ko'zlangan maqsad, yurtimizda joylashgan suv obyektlarini o'rganish, ularning tarixiy ahamiyatini yanada oshirish bilan bir qatorda xalqning tarixiy ongini yanada rivojlantirishdir. Maqolada olimlarimizning olib borgan tadqiqotlari, chiqargan ilmiy xulosalaridan foydalangan holda tushuntirishlar berilgan. Misol tariqasida, yurtimizdan oqib o'tuvchi Amudaryo, Sirdaryo, Qashqadaryo, Zarafshon daryolarining etimologiyasiga oid ma'lumotlardan foydalanilgan.*

Olamdagi har bir predmet o'zining nomiga ega. Uning qanday ma'no anglatishiga, ularning tarkibiga qiziqish, ma'lumki, o'tmishda ham bo'lgan. Kishi ismlari, joy nomlarining paydo bo'lishi, etnografiyasi, ma'no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda anchagina qiziqarli fikrlar mavjud. Atoqli otlar o'zi nima? Bu fan bilan qaysi soha vakillari shug'ullanadi? Atoqli otlar tilshunoslik, geografiya va tarix fanlari uyg'unligidagi barchasiga birdek aloqador fan hisoblanadi. "Har bir nom, - deb yozgan edi T.Nafasov, - til - fakti, tarix-hodisasi, geografiya - adresati. U muhim ijtimoiy-siyosiy funksiya bajaradi, yer yuzasidagi obyektlar uchun oriyentir sanaladi. Toponimiya xalqlar va tillar munosabatini aks ettiruvchi ko'zgidir. O'tmishda toponimlar dastlab geograflar, tarixchilar tamonidan o'rganilgan. Hozir toponimlarni lingvistlar sistema sifatida tadqiq etmoqda"[4]. Taniqli geograf H.Hasanov "Geografiya fanining bir sohasi –toponimika O'rta Osiyoda hali "bo'z" soha deb qayd qilgan" [1] yoki boshqa asarida «Toponimika aslida geografiyaning bir tarmog'i bo'lib, tilshunoslik faniga ham, tarix faniga ham uzviy bog'langan. Toponimikani tilshunoslik yoki tarix fanining bir tarmog'i desa xato bo'lmaydi. Har bir fan sohibi toponimik tadqiqotlarda o'z mutaxassisligini ustun qo'yadi» [4] deb yozgan. Xulosa shuki, toponimika uchala fan orasida paydo bo'lgan hali to'liq darajada o'rganilmagan mustaqil fandır. Biz hozir uni filologik jihatdan tahlil qilamiz.

Toponimika – nomshunoslikning joy nomlarini o'rganuvchi sohasi bo'lib quyidagi turlarga bo'linadi: Oronim (tog', qir, tepa, cho'qqi, davon v.b. atoqli otlari),

gidronim (okeanlar, daryolar, ko'llar, dengizlar, kanallar, soylar v.b. atoqli otlari), xoronim (cho'lliklar, qumliklar, tabiiy o'rinlar atoqli otlari), oykonim (shahar, qishloq, mahalla v.b. atoqli otlari), ekklezonim (machit, cherkov, manostir v.b.), dromonim (Yer osti, Yer usti, suv osti va suv usti yo'llarining atoqli otlari), nekronim (mozor, qabriston va shu tip muqaddas qadamjoylar).

Okean, dengiz, ko'l, soy, jilg'a, quduqning har biri suv obyektini hisoblanadi. Suvsiz hayot yo'q. Yer sharida dastlabki hayot ham suvda, okeanda paydo bo'lgan degan fikr bor. Dastlabki aholi punktlari ham suv atrofida paydo bo'lgan[4]. Toponimikaning suv obyektlari nomlari, ularning kelib chiqishini, atalish qonuniyatlarini o'rganadigan sohasi gidronimika deyiladi.

Yer -xazina, suv -gavhar. Oldingdan oqqan suvni qadri yo'q. Suv - zar, suvchi - zargar. Shu va shu kabi mavzudagi maqollar ham xalqimiz orasida keng qo'llanadi. Bu esa suv naqadar aziz ne'mat ekanligining isbotidir. Yurtimizda turli suv inshootlari bor. Ularning har biri o'zining nomiga ega. Barcha suv ob'ektlarining nomlari gidronimlar deyiladi (yunoncha «hidro» - suv, «onim» - nom). H.Hasanovning iborasi bilan aytganda: «nomlar joylarga shunday moslab berilganki, mahalliy aholining zakovatiga qoyil qolasan kishi. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa ot qo'yish oson. Chunki yuzlab tayyor ismlar bor, ulardan faqat o'zingizga ma'qulini tanlab olasiz. Ammo joy nomlari tayyor emas. Ularni «o'ylab topish» kerak, ismini jismiga monand qilish kerak», yoki «agar nomlar tarixi tilga kirsak, tog'lar va suvlarning xosiyati, o'simlig-u hayvonot turlari, savdo-sotiq, hunar-kasb, xazinalar, janglar-u e'tiqodlarimizning hammasi ayon bo'ladi». Darhaqiqat, o'lkamizdagi joy nomlarini kuzatadigan bo'lsak, har birining «ismi jismiga monand»[1]. Misol tariqasida gidronimlarni olsak, ular suvning xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'ladi. Daryo, ko'l, buloq va quduqlar suvining rangi, sho'rliigi, toza (tiniq)ligi, chuqurligi va boshqa xususiyatlariga qarab har xil. Yer osti suvlaridan, sizot suvlardan hosil bo'lgan daryolar Qorasuv, Qoradaryo deb, tog'lardagi qor va muzlardan suv oluvchi daryolar ko'pincha Oqdaryo deb, tiniq va toza suvli ko'llar Oynako'l, Ko'kko'l, loyqa suvli bo'lsa, Ayronko'l, sho'r bo'lsa Sho'rko'l, Achchiqko'l, Achchiko'l deb nomlanadi. Farg'onadagi Tentaksoy, Surxondaryodagi Jinnidaryo bahorgi toshqin vaqtida jo'shqin bo'lib, o'zanini o'zgartirib, qirg'oqlarini buzib oqqanligi uchun shunday nom olgan. Obirahmat (shifobaxsh, suvi shirin buloq), Issiqsuv, Obigarm, Arashon, Qaynarbuloq, Jimbuloq. Quduqlar ham xuddi shunday xususiyatiga qarab Shirinquduq, Sho'rquduq, Chuqurquduq kabi nomlarga ega. Yog'ingarchilik vaqtlarida suv oqib, ko'p vaqt qurib yotadigan kichik daryolar ko'pincha Quruqsoy deb ataladi. Chuqur va sho'x daryolar qizil so'zi bilan ifodalanib, Surxob, Kolarado (ispancha) deb atalgan. Qorasuv – «buloq suvi» - tekis yerda sekin oqadi[5].

O'rta Osiyodagi eng yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo haqidagi olimlarning fikrlarini o'rganadigan bo'lsak, qadimgi yunon tarixchisi Gerodot (miloddan avvalgi II asr) asarlarida Araks deb, keyinroq (miloddan avvalgi II asr milodning II asrida)

o'tgan yunon tarixchilari asarlarida Oks (yoki Oksos) deb atalgan. Olimlar ana shu Oks (ba'zan Akes) Amudaryoning qadimiy turkiy nomi - o'kuz «daryo» so'zining o'zginasi deb hisoblaydi. Avesto va boshqa tarixiy manbalarda Amudaryoning Arang, Raxa, Ranxa, Aranxa degan qadimiy nomlari ham uchraydi. Arablar uni Jayxun «jo'shqin daryo» deb atashgan. Jayxun yahudiylarning muqaddas kitobi «Tavrot»da tilga olingan Jixon daryosiga nisbat berib atalgan, degan fikr ham bor. Rus olimi V.V.Bartold arablar Jayxun bilan Sayxun (Sirdaryo) nomlarini Shimoliy Suriyadagi Jayxon va Sayxon daryolari nomlari bilan atashgan bo'lsa kerak deydi. O'rta asr tarixchisi Gardiziy «Jayxun har qanday katta daryoni bildiradigan turdosh ot» deb yozgan edi. Bu to'g'ri fikrga o'xshaydi. Masalan, Zarafshondan tarqalib, Buxoro shahrini suv bilan ta'minlab turgan Shahrud (Shohrud emas) - «rudi shahri Buxoro»ning qisqartirilgan shakli. Aslida Shahrud («shaharga suv beradigan anhor») ning quyi qismi Jayxun deb atalgan[4].

Amudaryoning hozirgi nomi o'rta asrlarda mavjud bo'lgan Omul (Omuy, Omuyya) shahri (hozirgi Chorjo'y) nomidan olingan deyishadi. Shahar daryodan nom olgan bo'lishi ham mumkin. Akademik V.V.Bartold «Bu so'z ariylardan ham oldingi amard xalqi nomidan kelib chiqqan bo'lsa kerak» degan farazni oldinga suradi. Mahmud Koshg'ariyda har qanday sokin, barqaror, turg'un narsaning amul deyilishini aytib o'tish mumkin («Devonu lug'at-at turk», 2-tom, 104-bet). Tarixiy 21 manbalarda Amudaryoning Termiz daryosi, Kalif daryosi, Arang, Raxa, Aranga, Urganch daryosi, Xorazm daryosi kabi nomlari uchraydi[2].

Sirdaryoning nomlari ham ko'p bo'lgan. Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida Yaxartes (Yaksart), ba'zan Tanais, zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da Danu, Yaosha, X asrda yozilgan «Hudud ul-olam» qo'lyozmasida Xashart, Runik turkiy yozuvlarda Yenchuo'guz, Firdavsiyning «Shohnoma» sida va Hamdalloh Qazviniyning «Nuzhat al-qulub» («Qalblar huzuri» 1339 yil) asarida Gulzarriyun, arablar kelgandan keyingi ko'pgina solnomalarda Sayxun, arab geografi Ibn Xurdodbeh asarlarida (X asr) Xishart, Beruniyda Xasart shakllarida tilga olingan. Shu bilan birgalikda u qaysi yerdan oqib o'tishiga qarab, Obi Farg'ona (Farg'ona daryosi), O'zgan daryosi, Obi Xo'jand, Nahr ash-Shosh (Shosh yoki Choch daryosi), Banokat daryosi kabi nomlar bilan atalgan. Shuni aytish kerakki, Yaxartes va Yaksart ham, Xashart va Yenchuo'guz ham Marvarid (Inju) daryosi degan ma'noni anglatgan. [2]

Daryoning hozirgi nomi - Sirdaryo qachon paydo bo'lgan? Rim tarixchisi Pliniy (I asr) daryoni skiflar (saklar) Sitis deyilar deb yozgan edi. Ba'zi olimlar (V.V.Bartold, S.G.Klyashtorniy, H.Hasanov) Silis - Sir so'zining aynan o'zginasi deb bilganlar. Demak, Sirdaryo qadim zamondanoq, o'rta va yuqori oqimlarida Yaksart, quyi oqimida Silis (Sir) deb atalgan[4].

Sirdaryo so'zining ma'nosi nima? Daryo nomi sir, ya'ni «rang, bo'yoq», «Sariq daryo (loyqa suvli daryo), «Serob» (Sersuv), «Sirt-daryo» (tog' sirtlaridan,

tepalaridan oqib keladigan daryo) degan ma'noni bildiradi deb sharhlovchilarni fikri noto'g'ri ekanligini professor H.Hasanov aytib o'tgan edi. Bu azim daryo shu atroflarda yashagan Sar (silis - sir) qabilasi nomi bilan atalgan deyish ancha haqiqatga yaqin[1].

Bundan tashqari yurtimizdan oqib o'tuvchi Zarafshon daryosi, haqiqatan, «Zar sochuvchi» daryo. Daryo o'zanidagi qumlarda oltin zarralari bo'lganidan daryo shunday nom olgan. Po'stak yoki uzun patli gilam ustiga qum to'kib, bosim bilan yuvganda, oltin zarralari jun oralarida qolgan. Shu yo'l bilan qumdan oltin ajratib olishgan. Lekin Zarafshon daryoning keyingi asrlarda paydo bo'lgan nomi. Miloddan oldingi yunon tarixchilari asarlarida Politimet, o'rta asrlarda Obi Ko'hak – Ko'hak suvi deb atalgan. Ko'hak - Samarqand shahri yaqinidagi Cho'ponota tepaligining tojikcha nomi (ko'hak – tog'cha, qir). Bu tepalik arab geograflaridan Ibn Havqal (X asr) asarlarida Jabali Ko'hak deb atalgan (arabcha jabal - «tog'»). Daryoning Namik, Ro'di Masof, Nahri Sug'd (Obi Sug'd), Ro'di Shahr, Haramkom, Rudi Somjon kabi nomlari ham bo'lgan[4].

Bugungi kunda ham oykonim ham gidronim sifatida qo'llanilayotgan Qashqadaryo nomi katta suv ob'ektlarining nomlari qadimiy bo'ladi degan fikrning to'g'ri ekanligini isbotlaydi. Bu daryo nomining kelib chiqishi haqida qancha fikrlar bildirilgan bo'lsa ham gidronim etimologiyasi to'g'ri aniqlangan deb bo'lmaydi. Qashqa so'zining ma'nosi ko'p. Akademik V.V.Bartoldning Qashqadaryo Kesh (Shahrisabz) shahri nomining fonetik o'zgarishi oqibatidir, degan fikri to'g'riga o'xshaydi. Kesh shahri nomi asli Kash bo'lgan, chunki shaharning epiteti «Kashidilkash» bo'lgan. Arab geograflari asrlarida Qashqadaryo (X asr) Keshkiro'd deb, Temur davrida Xashqa (Xashqaro'd) deb yuritilgan va keyinchalik Qashqadaryo bo'lib ketgan.

R.A.Ageyevaning «Ko'l va daryo nomlarining kelib chiqishi» kitobiga so'z boshi yozgan E.M.Murzayev shunday qayd qilgan: «gidronimlar vaqt eroziyasiga kam duchor bo'ladi, qadimiy, shu sababdan asl shakli va mazmunini tiklash ancha qiyin bo'lgan toponimlar guruhiga kiradi. Ularning bu xususiyati tarixchi, tilshunos va geograflarda katta qiziqish uyg'otib, ularga uzoq o'tmishga nazar tashlash imkonini beradi»[3,4].

Gidronimlar qanday so'zlar asosida yaratilganligini aniqlash va nomlanish tamoyillarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida gidronimlarning nomlanishiga sabab bo'ladigan omillarni ko'rib chiqamiz:

1. Kishi ismlari asosida vujudga kelgan gidronimlar. Ko'pincha bunday suv obyektlarining (ariq, quduq, buloq, kanal va boshq.) paydo bo'lishida (qazilishida) rahbarlik qilgan shaxslar nomi bilan atalgan. Chunonchi, Nazarboyquduq, Qosimbekquduq (Forish tumani), Omonbuloq, Mirzabuloq (G'allaorol tumani), Toshbekariq (Jizzax tumani) va boshqalar.


2. O'simlik va hayvonlar nomi asosida paydo bo'lgan gidronimlar, ya'ni suv obyektlarining nomlanishida muayyan bir o'simlik yoki hayvon nomi asos qilib olingan. Masalan, O'rikli soy (Zomin tumani), Terakli soy (Baxmal tumani), Qo'ybuloq, Ilonli soy (Forish tumani) va boshqalar.

3. Yer qatlamining ustki tuzilishi, tuproqning tarkibiga ko'ra nomlangan gidronimlar. Bunday gidronimlar tarkibida qum, tosh so'zlarini ko'p uchratish 29 mumkin. Masalan, Sangzor (Baxmal tumani), Yoyilma (Jizzax tumani), Yonbuloq (Forish tumani), Gumsoy (G'allaorol tumani) va boshqalar. 4. Suvning rang xususiyatiga qarab nomlangan gidronimlar. Bu gidronimlarning nomlanishida oq, qora, ko'k, qizil kabi ranglar o'zak so'z sifatida ko'proq uchraydi. Chunonchi, Oqbuloq (Zarbdor tumani), Qorasoy (Jizzax tumani), Qorasuv (Baxmal tumani), Ko'kbuloq (Baxmal tumani), Qizilquduq (Forish tumani) va boshqalar.

4. Suvning harorati, hidi va maza-ta'miga qarab nomlangan gidronimlar. Bunday gidronimlarni nomlashda ko'pincha sovuq, issiq, sassiq, achchiq, shirin, sho'r kabi so'zlardan foydalanilgan. Masalan, Issiqko'l (Forish tumani), Sovuqbuloq, Jilibuloq (jili-iliq ma'nosida) (Baxmal tumani), Muzbuloq (G'allaorol tumani), Sho'rquduq (Forish tumani), Sho'rchu (Zomin tumani), Sho'rbuloq (Baxmal tumani), Sassiqbuloq (Forish tumani) va boshqalar. 6. Miqdor, hajm va son-sanog'iga qarab nomlangan gidronimlar. Bunday nomlar gidronimning miqdorini, son-sanog'ini va hajmini belgilashga qaratilgan. Ko'pincha ikki, besh, olti, qirq, yuz, ming, gala, qo'sh, to'da so'zlaridan foydalanib gidronimlar yasalgan. Chunonchi, Beshbuloq, Duoba (tojikcha, du-ikki...)[4]





Barcha boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan darsliklarda berilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning har birida vosita turlichaligiga qaramay, ularni berishdan maqsad bitta tizimga solingan. 1-sinfda nomlarning bosh harf bilan yozilishi, 2-sinfda nomlar kengaytirilgan, turlarga ajratilganligi, 3-, 4-sinflarda esa asosiy e'tibor otlarning grammatik jihatlariga qaratilib, nomlarga qisqacha to'xtab o'tilganining guvohi bo'lamiz.

“ERUDIT” o'yini



Ushbu metodni o'tkazishdan asosiy maqsad, o'quvchilarda tezkorlikni shakllantirish bilan bir qatorda diqqatni jamlash va toponimikaga oid dastlabki, boshlang'ich bilimlarini mustahkamlashdir

Shartli belgilar:

	Yasalgan so'zning biror harfi shu rangdagi katak ustiga tushsa, so'z orqali necha ball yig'sa, shuni 3 baravariga teng ochko oladi
	Yasalgan so'zning biror harfi shu rangdagi katak ustiga tushsa, so'z orqali necha ball yig'sa, shuni 2 baravariga teng ochko oladi
	Yasalgan so'zning biror harfi shu rangdagi katak ustiga tushsa, shu harf necha ochko beradigan bo'lsa, shuni 3 baravariga teng ochko oladi
	Yasalgan so'zning biror harfi shu rangdagi katak ustiga tushsa, shu harf necha ochko beradigan bo'lsa, uni 2 baravariga

O'yin shartlari:

Biz ushbu o'yinni toponimlar, joy nomlariga moslab olamiz. Ya'ni tuziladigan so'zlar faqatgina toponim bo'lishi kerak. So'zlar faqat gorizontol va vertikal yo'nalishda yasaladi.

Qatnashchilar soni: 2 tadan 4 tagacha

Ularning yoshi: 7-8 dan yuqori

Harflar soni: 224 ta, 16 juft

Kataklar soni: 15X15

Yurishlar soni: harflar tamom bo'lguncha

Chiqqanicha so'z yasashi mumkin

O'yin har bir qatnashchi yettitadan harfni qopchasidan tortib olishi bilan boshlanadi. 1-so'z markazdagi katakchadan o'tkazilgan holda yasaladi.

Qo'lidagi harflardan istagancha foydalanishi mumkin. Uni ehtiyotlab ishlatsa, o'ziga foyda bo'ladi. Sababi, qo'lidagi fishkalarini yangilamoqchi bo'lsa, o'zining o'yin navbatini qo'ldan boy beradi. Agar har bir qatnashchi yangilasa, xod o'tkazilmaydi.

Harflarni yangilash 2 xil bo'ladi:

1. Qo'lidagi fishkalar sonini 7 taga to'lg'izadi

2. Fishkalarini butunlay almashtiradi. Qo'lidagilarni berib, o'rniga 7 ta oladi

O'yin yakunida jami yig'ilgan ballar hisoblanib natija e'lon qilinadi.

Shu kabi mashg'ulotlar sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida qo'l keladi.

Biz yuqorida bergan ma'lumotlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun biroz murakkablik qilish mumkin, lekin pedagog ularni o'qib-o'rganib ularga soda, tushunarli tilda yetkazib berishi kerak. Shundan keyin ulardan xoh og'zaki, xoh yozma turli topshiriqlar berib mavzuni mustahkamlasa bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, gidronimlar hosil bo'lish davriga isbatan oykonim va toponimlarning boshqa turlaridan ko'ra qadimiy. Ularning nomlari esa bir necha o'rin-joy nomlarining yasalishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Suv havzalari bo'ylari qadimdan insonlarning manzilgohlari bo'lib kelgan. Hozirda ham ular bilan bog'liq afsona-yu rivoyatlar bir qancha. Suv ishootlari, daryo-yu ko'llarga qo'yilgan nomlar, umuman toponimlarning bari bizga tarixi eslatib turadi. Ularni to'g'ri anglash, tahlil qilish, asrash va kelajak avlodga yetkazish bizning vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. H.Hasanov Geografik nomlar siri. T.O'zbekiston nashriyoti. 1985.
2. S.Qorayev Toponimika. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2002
3. E.M.Murzayev. “Ocherki toponimiki”. -M:1974;
4. Abdunazarova Xurshida “Gidronimlar va ularning nomlanish xususiyatlari (Jizzax viloyati misolida)”BMI. 2013. JDU
5. Qorayev S. Etnonimika -T.; 1979.